

“UzAuto Motors” AJ
BAYONNOMA



25BN-2271-04113

2025-09-22

**Xarid yo‘nalishlarida xavflarning oldini olishda komplayens
siyosatlarining mazmun-mohiyati va ularga rioya qilinishi bo‘yicha
o‘quv mashg‘uloti tashkil etilganligi to‘g‘risida**

O‘tkazilgan sana	12.09.2025.
O‘tkazilgan joyi	“UzAuto Motors” AJ umumiy majlislar zali va zoom platformasi
Bayonnoma tuzuvchi	D.S. Mirzajonov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvar kungi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81 sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “O‘zavtosanoat” AJ tarkibidagi “UzAuto Motors” AJ, “UzAuto Motors” AJ Xorazm filiali, “UzAuto Motors Powertrain” AJ, “UzAuto Components” MCHJ hamda “Auto Spring Components” MCHJlarda xarid yo‘nalishida mehnat qiluvchi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki tartib-taomillar to‘g‘risidagi xabardorligini oshirish, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or dunyo tajribasi, jumladan, ISO 37001:2016 — “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi: Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi.

Mazkur mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi — xodimlar orasida korrupsiyaning salbiy ta‘sirini anglash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga amal qilgan holda halol va mas‘uliyatli faoliyat yuritishni targ‘ib etishdan iborat.

Tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etgan xodimlar ro‘yxatini “Mashg‘ulotlarni hisobga olish varoqlari” orqali taqdim etiladi.

Tasdiq

UzAvto akademiyasi boshlig'i



2025-09-22 13:41

D. Y. Isroilov

2025-09-18 17:01

Bo'lim ichida rozilik

Bo'lim boshlig'i

O'quv bo'limi



2025-09-18 17:01

A. V. Irgashov

2025-09-18 16:08

Bo'linma boshlig'i

O'qishlarni nazorat qilish bo'linmasi



2025-09-18 16:15

X. K.

Raximberdiyev

2025-09-18 16:08

Mas'ul

2-toifali muhandis

O'qishlarni nazorat qilish bo'linmasi



2025-09-18 16:08

D. S. Mirzajonov

2025-09-18 16:08